

## METAMORFOZA FENOMENINING FANLARARO KESISHUVI

Oripov Alijon Olim o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrası magistranti

[aligafurov1298@gmail.com](mailto:aligafurov1298@gmail.com)

### Annotatsiya:

Maqolada bugungi o‘zbek va jahon tilshunosligida metamorfoza tushunchasining mohiyati xususida so‘z boradi. Dunyo olimlarining metamorfoza hodisasi yuzasidan olib borgan tadqiqotlariga bag‘ishlangan ishlari turli sohalarda ilmiy izlanishlarning obykti ekanligi ilmiy-nazariy manbalar asosida aniqlandi.



**Kalit so‘zlar:** metamorfoza, evrilish, fenomen, fan, tilshunoslik.

Ilmiy tadqiqotlar bilan chuqurroq tanishish natijasida metamorfoza nafaqat lingvistik termin sifatida, balki boshqa fanlararo kesishuvda mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham mavjud ekan. Masalan, biologiya, falsafa, siyosatshunoslik, musiqashunoslik, rassomchilik sohalarda ham metamorfoza ilmiy tadqiqotlar manbai sifatida xizmat qilgan. Jumladan, L.N.Lixaskayaning “Mauris Kornelis Esher asarlarida metafora va metamorfoza” nomli ilmiy maqolasida aynan rassomchilikda metamorfoza bir ko‘rinishdan boshqa bir ko‘rinishga o‘tish holatini niderlandiyalik rassom M.K.Esher asarlaridagi turli tasvirlarda uchratgan va buni o‘zining ilmiy tadqiqotida ochib berishga harakat qilgan. Ayniqsa, olim o‘z tadqiqotida A.F.Losev [1, C. 1-22], U.Xogart [2, C. 324], A.P.Floreskiy [3, C. 92–104], S.A.Proxorova [4, C. 46], O.B.Panova [5, C. 92–104], G.G.Mayorova [6, C. 38–43], M.Yu.Shishina [7, C. 105–112] kabi olimlarning yondashuviga asoslangan. “M.K.Esherning asarlari faqatgina rassomlarni emas balki matematiklarni ham juda qiziqtiradi” [8, C. 120–127] – deydi tadqiqotchi. Sababi rassom birinchi navbatda o‘zining syurreal litografiyalari, yog‘och o‘ymakorligi va metall gravyuralari bilan tanilgan, unda u cheksizlik va simmetriya tushunchalarining egiluvchan jihatlarini, shuningdek, murakkab uch o‘lchovli obyektlar va “imkonsiz shakllarni”ni psixologik idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan.

Agar M.K.Esher tomonidan turli yillarda yaratilgan asarlarni ko‘rib chiqsak, ko‘plab kompozitsiyalarda shaklning keyingi modifikatsiyasi bilan bog‘liq harakat g‘oyasi



ishlab chiqilayotganini ko‘rishimiz mumkin. “Uning asarlarida “harakat” tushunchasi (syujetdagi harakat sifatida) badiiy metafora hisoblanadi. Esherning transformatsiya metaforasi ko‘pincha harakat motivi bilan bog‘liq va harakat tasvirlangan geometrik figuraning matematik xususiyatlari bilan belgilanadigan turli xil xarakterga ega” [9, C. 120-127], – deb ta‘kidlaydi tadqiqotchi. Masalan u “Osmon va suv” (“Небо и вода” 1938.) asarida shakllarning transformatsiya qilinganini, ya’ni baliqlarning qushlarga aylanishi yoki teskarisi kabi metmorfoza holatini kuzatgan. (1 jadval)

	
<p style="text-align: center;"><b>1 JADVAL</b> M.K.Esher “Osmon va suv” (Небо и вода). 1938.</p>	<p style="text-align: center;"><b>2 JADVAL</b> M.K.Esher “Osmon va suv” (День и ночь). 1938.</p>

Shuningdek, rassom tomoshabinga “Kecha va kunduz” (“День и ночь” 1938) asarida o‘zi ixtiro qilgan “forma-kontrforma” texnikasi orqali sekin o‘zgarish jarayonini (metamorfoza hodisasini) kuzatish imkoniyatini beradi. (2 jadval)

Tadqiqotchi, o‘z ilmiy ishida “metafora va o‘yin orqali rassom hayot, dunyo, inson haqidagi falsafiy o‘ylarini ochib beradi, metamorfoza M.K.Esherning barcha tasvirlarida barqaror motiv sifatida mavjud bo‘lib, dunyoning harakatchanligini, borliqning ravonligini, voqealarning o‘zgarishini, insonning psixologik holatini va uning dunyoga munosabati sifatida mavjud”, [10, C. 120–127]– deya xulosa qiladi. D.E.Rosentalning ta‘rifiga ko‘ra metamorfoza “bu hodisa obyektlar toifalari asosida bir shakldan ikkinchisiga yoki bir turdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tish jarayonini aks ettirishdan tashqari, metafora sifatida taqqoslashda yuzaga keladigan natijani ham ko‘rsatadi” [11, C. 329].

S.V.Nikishkin esa mazkur fenomenga inqilobiy ong fenomeni sifatida yondashadi va mutafakkirlarning ushbu masalaga nisbatan pozitsiyalarini ya’ni yondashuvlarini ilmiy tadqiq etadi [12, C. 35-37]. Shuningdek, antik falsafa namoyondalari Platon,





Aristotel, Avgustin hamda XIX-XX asrlarda diniy falsafa yoʻnalishida ijod qilgan mutafakkirlar Berdyaev, Bulgakov, Bekon, Gegel, Marks va Kont asarlarini oʻrganib chiqadi [13, C. 38-39]. Olim inqilobiy ong hodisasining tarixiy metamorfozalarini oʻrganib, uning umumbashariy tarixiy ahamiyatini koʻrsatishga harakat qiladi. “Falsafiy, sotsiologik, psixologik adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadki, inqilobiy ong hodisasining metamorfozalari haqida yaxlit falsafiy tasavvur mavjud emas” [14, C. 43-44], – degan xulosaga keladi.

Rus olimi D.A.Tukmakov amerikalik faylasuf va antropolog Karlos Kastanedaning diniy va falsafiy qarashlarini ilk bor oʻrganadi. Kastanedaning har bir asardagi ilmiy yondashuvlar, dialoglar, maksimlar va dalillarini oʻz ishida chuqur tahlil qilib chiqadi. Dunyoning sehri talqinini tashkil etuvchi Kastanedaning bazaviy kategoriyalari va konsepsiyalarini nazariy tahlil qilgan, shuningdek, ushbu kategoriyalarning oʻzaro bogʻliqligini hamda Kastanedaning asosiy oʻn bitta kitobida dunyoning sehri talqinining ajralmas va izchil birligi ekanligi oʻz ifodasini topganligini aniqlagan [15, C. 23-25]. D.A.Tukmakov Kastanedaning quyidagi asarlari yaʼni “Don Xuan taʼlimoti: Yaqui hindularining bilim yoʻli”, “Alohida haqiqat”, “Ixtlanga sayohat”, “Kuch ertaklari”, “Kuchning ikkinchi halqasi”, “Burgut sovgʻasi”, “Ichkaridan olov”, “Olov”, “Sukunat kuchi”, “Orzu qilish sanʼati”, “Cheksizlikning faol tomoni”, “Vaqt gʻildiragi”, “Sehri dovonlar: qadimgi Meksika Shamanlarining amaliy donoligi” kabi asarlarning nazariy-falsafiy xususiyatlarini oʻrgangan [16, C. 23-25]. Shu bilan birga olim, Karlos Kastanedaning falsafasining asosini tashkil etuvchi asosiy ontologik va epistemologik qarashlarini barcha asosiy paradigmalarni belgilovchi qadriyat-gʻoyaviy va maʼnaviy-amaliy asoslarini ochib bergan.

Olim oʻz xulosasida, Kastanedaning barcha oʻn bitta kitobi dunyoning sehri talqinining ajralmas va izchil birligini ifodalanishini va bu «tadqiqot sohasi» davomida bir xil kategoriya va konsepsiyalar bilan ishlashga imkon berdi.

A.V.Maxlaev esa oʻzining ilmiy ishida rus milliy ongi va uning metamorfozlarining eng muhim va baʼzi hollarda oʻtkir siyosiy inqiroz sharoitida siyosiy jarayonning rivojlanishiga taʼsir qiluvchi, baʼzi hollarda esa hal qiluvchi omil sifatidagi oʻrnini tadqiq etgan [17, C. 18]. Tadqiqot obyekti sifatida rus milliy ongining oʻziga xos xususiyatlarining siyosiy voqealarga, siyosiy qarorlarga, siyosiy institutlarning faoliyatiga, shuningdek, Rossiya jamiyatining siyosiy hayotidagi alohida siyosiy rahbarlarning faoliyatiga taʼsiri olingan. Ushbu ishda Rossiya jamiyatining siyosiy



hayotida muhim omil sifatida rus milliy ongining roli va uning tuzilishini ilmiy adabiyotlarda belgilangan xususiyatlardan foydalangan holda etnopolitik komponentni aniqlagan. Shuningdek, rus milliy ongini va uning metamorfozlarini siyosiy inqiroz uchun zarur sharoitlarni shakllantirishning muhim omili sifatida tavsiflab, o'tkir siyosiy inqiroz sharoitida rus milliy ongining metamorfozlarining paydo bo'lishi jarayonini tahlil qilgan. Jumladan, 1917 yil fevral-iyun inqirozi, shuningdek, 1991-1993 yillardagi voqealar misolida rus milliy ongi va uning qayta talqin qilinishi ya'ni metamorfozlari siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir qilish mexanizmini ochib bergan hamda davlat boshqaruvi tuzilmalari, siyosiy partiyalar va alohida siyosiy arboblarning faoliyatidagi o'zgarishlarning o'tkir siyosiy inqiroz sharoitida rus milliy ongining metamorfozlariga bog'liqligini aniqlagan [18, C. 19].

O'zbek tadqiqotchisi N.A.Kadirova jahon adiblari ijodida evrilish motivining o'rni, tarixiy-folkloriy ildizlari, badiiy evolyutsiyasi, qo'llanilishidagi mushtaraklik va individuallik, poetik-kompozitsion xususiyatlarini aniqlagan. Olim, Gomer, Publiy Ovidiy Nazon, Apuley, Vilyam Shekspir, Onore de Balzak, Frans Kafka, Gabriel Garsia Marques, Paulo Koelo, Sharl Perro, Ernst Teodor Amadey Gofman, Gerbert Jorj Uells, Robert Luis Stivenson, Mark Tven, Akutagava Ryunoske, Aleksandr Pushkin, Mixail Bulgakov singari jahon adiblarining evrilish motividan foydalanib yaratgan she'riy, nasriy, dramatik asarlarini tahlil qilgan. Jahon og'zaki va yozma adabiyotida, jumladan, o'zbek adiblari ijodida evrilish motivining o'rni, genezisi hamda poetik ko'rinishlarini aniqlab ularning badiiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlarini belgilab bergan [19, C. 22].

Tadqiqotchi o'z ilmiy ishida Antik adabiyotda ma'budlar haqidagi afsonalarda, Gomerning "Odissey" dostonida, Ovidiyning "Metamorfoza" asarida evrilish motivining o'ziga xos badiiy ifoda xususiyatlarini, poetik vazifalarini, keyingi estetik tajribalarga ta'sirini ochib bergan. Shuningdek, uyg'onish davri va undan so'ng, xususan, XX-XXI asr jahon adiblari asarlarida evrilish motividan foydalanishga xos an'ana va novatorlik belgilarini ochib berib, badiiy ijodda evrilish motivi g'oyaviy-estetik hamda kompozitsion jihatdan muhimligini, syujet qilishida voqealarni bog'lashda ahamiyat kasb etishini asoslab bergan [20, C. 23]. Demak, o'rganilgan materiallar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, metamorfoza sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning deyarli barchasi xorijlik olimlar nisbatiga to'g'ri keladi. Masalan, iqtisodchi, faylasuf, rassom, matematik,



siyosatshunos, biolog rus va ingliz olimlari tadqiqot qilishgan hamda ushbu sohada olib borilgan ishlar negizida esa doimo aniq bir holatdan boshqa bir holatga o'tish yotadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Лосев Т.В., Сорокина М.Ю. Использование приемов опарта в дизайне ювелирных изделий // Дизайн. Теория и практика. – 2011. – №6. – С. 1-22.
2. Хогарт У. Анализ красоты: пер. с англ. / Вступ. ст. и примеч. М.П.Алексеевна. – Л.: Искусство,1987, – 254 с.
3. Флореский П.А. Анализ пространственности и времени в художественнообразительных произведениях. – М.: Прогресс, 1993. – 324 с.
4. Прохоров С.А. Современные цветографические интерпретации живописи в архитектурном пространстве: автореф. дис. на соиск. учен. степ. д-ра искусствоведения. – Барнаул, 2013. – 46 с.
5. Панова О.Б. Искусство как универсальный язык культуры: современные контексты проблемы и перспективы исследования // Вестник Томского государственного университета. – 2014. – № 379. – С. 92–104.
6. Майоров Г.Г. Три типа понимания философии в истории европейской культуры (Сознание у подножия Абсолюта) / Г.Г. Майоров // «Алтай – Космос – Микрокосм: сознание человека и биосфера на пороге XXI века»: тез. докладов IV междунар. конф. / [редкол.: И.В. Фотиева (отв. ред), М.Ю. Шишин и др. – Барнаул: Ак-Кем, 1998. – С. 38–43.
7. Шишин М.Ю. Проблема интерпретации произведения искусства: философские ракурсы рассмотрения // Вестник Алтайской науки. – 2013. – № 2–2. – С. 105–112.
8. Лихацкая Л.Н. Метафора и метаморфоза в произведениях Маурица Корнелиса Эшера // Ползуновский альманах – 2017. – № 3 Т. 2 – С. 120–127.
9. Лихацкая Л.Н. Метафора и метаморфоза в произведениях Маурица Корнелиса Эшера // Ползуновский альманах – 2017. – № 3 Т. 2 – С. 120–127.





10. Лихацкая Л.Н. Метафора и метаморфоза в произведениях Маурица Корнелиса Эшера // Ползуновский альманах – 2017. – № 3 Т. 2 – С. 120–127.
11. Rosenthal D.E. Handbook of Russian language stylistics. Moscow: Iris Press, p. 329
12. Никишкин С.В. Феномен революционного сознания и его исторические метаморфозы. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2003. – С. 35–37.
13. Никишкин С.В. Феномен революционного сознания и его исторические метаморфозы. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2003. – С. 38–39.
14. Никишкин С.В. Феномен революционного сознания и его исторические метаморфозы. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2003. – С. 43–44.
15. Тукмаков Д.А. Философско-религиозные воззрения Карлоса Кастанеды. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2000. – С. 17–19.
16. Тукмаков Д.А. Философско-религиозные воззрения Карлоса Кастанеды. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2000. – С. 23–25.
17. Махлаев А.В. Метаморфозы русского национального сознания в условиях острого политического кризиса. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2006. – С. 18.
18. Махлаев А.В. Метаморфозы русского национального сознания в условиях острого политического кризиса. Автореф.дисс...канд. философ, наук. – Москва, 2006. – С. 19.
19. Кадирова Н.А. Жаҳон адиблари ижодида эврилиш мотиви (муштараклик ва индивидуаллик). Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Бухоро, 2019. –Б.22.
20. Кадирова Н.А. Жаҳон адиблари ижодида эврилиш мотиви (муштараклик ва индивидуаллик). Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Бухоро, 2019. –Б.23.